



## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-oktabr)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi va indeksi.

128,8 mird. so'm  
86,9 %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

13443,8 mlrd. so'm  
99,6 %

Ishlab chiqaradigan sanoat

492,8 mlrd. so'm  
110,0 %

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

79,1 mlrd. so'm  
96,8 %

Suv bilan ta'minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning sanoat korxonalari tomonidan 14144,5 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 99,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tar-kibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,1 % ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarishda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning fizik hajmi indeksi 10,0 % ga oshishi kuzatildi.

Aksincha, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 3,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 0,4 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 13,1 % ga pasayish kuzatilgan.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jamiga nisbatan ulushi, %




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 128,8 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 foizini tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat

Jamiga nisbatan ulushi, %

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13443,8 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,1 foizini tashkil etdi.







## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi,

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning hajmi 116,2 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 0,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali 2460,3 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 17,4 %), o'rta-quyi texnologiyali 1974,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 14,0 %), quyi texnologiyali tarmoq 8892,8 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 62,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarish hajmi  
(mlrd. so'm)



Ishlab chiqarishdagi ulushi  
(foizda)




yuqori texnologiyali  
 o'rta-yuqori texnologiyali

o'rta-quyi texnologiyali  
 quyi texnologiyali



### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-oktabr oylari davomida, ishlab chiqaradigan sanoatda 346,5 ming tonna chaqiq tosh (2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 42,0 % ga o'sgan), 132,9 ming tonna po'latdan quvurlar (2,0 martaga), 286,6 ming tonna asfalt (26,9 %ga), 16980,5 tonna yigirilgan ip (2,6 martaga oshgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Chaqiq tosh, ming t.	244,0	346,5	102,5
Po'latdan quvurlar ming t.	65,9	132,9	67,0
Tamaki (sigaret), mln.dona	8461,0	7915,0	-546
Asfalt, ming t.	225,8	286,6	60,8

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Yigirilgan ip, t	6501,4	16980,5	10479,1
Xo'jalik sovuni, t	4980,0	3420,0	-1560,0
Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish, ming t.	54,6	14,6	-40,0
Paxta tolasi, ming t.	14,6	28,4	13,8
O'simlik yog'i, t	8454,0	6728,1	-1752,9

	<b>Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish</b> <i>(yirik korxonalar bo'yicha)</i>
--	--



Tarkibida azot va  
fosfor bo'lgan  
mineral yoki  
kimyoviy o'g'itlar

**3,90**  
*ming tonna*

Aroq

**228,3**  
*ming l. 100% spirit*

Xo'jalik sovuni

**3420,0**  
*tonna*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab  
chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Uzum vinosi

1447,3  
*ming l.*Pivo (pivo ishlab  
chiqarish  
chiqindilardan  
tashqari)27239,0  
*ming l.*Yumshoq bug'doy va  
spelta uni148,0  
*ming tonna.*Birinchi navli undan  
tayyorlangan bug'doy  
noni (buxanka), og'irligi  
600 g.595,0  
*tonna*Tozalangan paxta yog'i  
va uning fraksiyalari  
(kimyoviy modifikatsiya  
qilinganlaridan tashqari)9666,7  
*tonna*

Paxta tolasi

28,4  
*ming tonna*



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab  
chiqarish**  
*(yirik korxonalar bo'yicha)*



Paxta chigiti



Paxta tiviti (lint)



Yigirligan ip

46,6  
ming tonna

2020,5  
tonna

**16980,5**  
tonna



Issiqlik elektr  
markazlari (IEM)  
ishlab chiqargan  
elektr energiyasi

69,53  
mln kBt.s



Bug' va issiqlik suv  
(issiqlik energiyasi)

66,6  
ming Gkal.



Portlandsement

89855,9  
tonna



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Po'latdan quvurlar



Asfalt



Chaqiq tosh

132,9  
ming tonna

286,6  
ming tonna

346,5  
ming tonna



Tamaki (sigaret)



Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa



Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish

7915,0  
mln. dona


96,1  
ming tonna

14,6  
ming tonna



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Jamiga nisbatan ulushi, %



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 492,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,5 foizini) tashkil etdi.




2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash tarmoqlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,0 % ga oshganligi kuzatildi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 79,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizini) tashkil etdi.




## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,2 % ga pasayganligi kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8633,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 9,0 % ga oshganligi hamda jami sanoatdagi ulushi 61,0 % ni tashkil etganligi kuzatildi.



2019- yilning mos davriga solishtirilganda, 2020- yil yanvar-oktabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,3 % dan 60,5 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat ishlab chiqarish tarkibida vino, aroq va pivo mahsulotlari 3,9 % (2019- yil yanvar-oktabr oylarida 4,7 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 42,0 % ni, shuningdek, Urgut tumani 13,0 % ni, Samarqand tumani 9,2 % ni, Jomboy tumani 7,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o'sish sur'ati (109,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Oqdaryo (201,0 %), Payariq (183,5 %), Pastdarg'om (165,8 %), Ishtixon (153,6 %), Jomboy (142,8 %) hamda Nurobod (120,4 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, ulushi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>8633,0</b>	<b>100</b>	<b>109,0</b>
Samarqand sh.	3631,5	42,0	101,7
Kattaqo'rg'on sh.	126,5	1,5	78,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	197,1	2,3	201,0
Bulung'ur	194,5	2,3	80,4
Jomboy	647,9	7,5	142,8
Ishtixon	191,5	2,2	153,6
Kattaqo'rg'on	175,3	2,0	107,4
Qo'shrabot	20,4	0,2	114,4
Narpay	264,5	3,1	136,8
Payariq	149,3	1,7	183,5
Pastdarg'om	371,7	4,3	165,8
Paxtachi	82,6	1,0	111,9
Samarqand	795,7	9,2	93,4
Nurobod	152,4	1,8	120,4
Urgut	1120,4	13,0	103,4
Toyloq	511,8	5,9	112,1



## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5607,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 39,6 % ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi

	2020- yil yanvar-oktabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>14144,5</b>	<b>99,6</b>
Samarqand sh.	6367,4	102,8
Kattaqoʻrgʼon sh.	212,8	97,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	248,5	109,7
Bulungʼur	319,9	104,3
Jomboy	1655,2	81,8
Ishtixon	270,8	140,0
Kattaqoʻrgʼon	294,7	105,8
Qoʼshrabot	32,4	100,2
Narpay	476,6	124,7
Payariq	242,9	108,6
Pastdargʼom	473,6	113,5

	<b>2020- yil yanvar-oktabr mlrd. soʻm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
Paxtachi	222,5	110,0
Samarqand	1289,8	100,7
Nurobod	167,4	122,9
Urgut	1329,0	107,4
Toyloq	541,1	115,6



### **Sanoat ishlab chiqarish hajmida hududlarning ulushi, % da**



Viloyatning sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng koʻp ulush Samarqand shahrida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning (45,0 %), Jomboy (11,7 %), Urgut (9,4 %), Samarqand (9,1 %), Toyloq (3,8 %), Narpay (3,4 %), Pastdargʼom (3,3 %) tumanlari hissasiga toʼgʼri kelmoqda.

Eng past koʼrsatkich esa Qoʼshrabot (0,2 %), Nurobod (1,2 %) tumanlari hamda Kattaqoʼrgʼon (1,5%) shahri hissasiga toʼgʼri kelmoqda.




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab  
chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi jami sanoat  
mahsulotiga nisbatan  
(2020- yil yanvar-oktabr oylarida)**

	Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>6390,2</b>	<b>45,2</b>
Samarqand sh.	1906,2	29,9
Kattaqo‘rg‘on sh.	75,9	35,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	116,4	46,8
Bulung‘ur	165,4	51,7
Jomboy	451,4	27,3
Ishtixon	73,6	27,2
Kattaqo‘rg‘on	245,9	83,4
Qo‘schrabot	25,0	77,4
Narpay	29,2	6,1
Payariq	242,2	99,7
Pastdarg‘om	262,7	55,5
Paxtachi	186,5	83,9
Samarqand	1075,4	83,4
Nurobod	149,4	89,3
Urgut	1075,8	80,9
Toyloq	309,2	57,1



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznes subyektlari ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6279,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, umumiy ishlab chiqarish hajmidaagi ulushi 44,4 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qo'shrabot, Oqdaryo, hamda Nurobod, (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %) ni, Bulungur (96,9%), Paxtachi (89,9%), Urgut (83,0%), Samarqand (69,6 %), Pastdarg'om (65,0 %) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Kattaqo'rg'on shahri (37,5 %), Samarqand shahri (29,5 %), Ishtixon (27,7 %), Narpay (8,2 %) tumanlarida kichik biznes subyektlari ulushining kamligi kuzatilgan, ushbu holatni mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini  
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 6835 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1557 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligining 22,8 %) Samarqand shahriga, 988 tasi (14,4 %) Urgut tumaniga, 634 tasi (9,3 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat bo'yicha 1361 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 209 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalaridagi ulushi 15,3 %) Samarqand shahrida, 183 tasi (13,4 %) Urgut tumanida, 137 tasi (10,1 %) Samarqand tumanida, 128 tasi (9,4 %) Pastdarg'om tumanida tashkil etilgan.

Sanoat statistikasi bo'limi  
Tel: (66) 235-06-80